

***“Таълим, иқтисодиёт ва туризм соҳаларида  
стратегик ислоҳотларни амалга ошириш  
муаммолари ва ечимлари” мавзусидаги халқаро  
илмий-амалий конференция***

***International Scientific and Practical  
conference on “Problems and solutions for implementing  
strategic reforms in education, economy and tourism ”***

***Международная научно-практическая  
конференция на тему “Проблемы и пути решения  
реализации стратегических реформ  
в образовании, экономике и туризме”***

**МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ  
CONFERENCE PROCEEDINGS  
СБОРНИК СТАТЕЙ**



**“Таълим, иқтисодиёт ва туризм соҳаларида стратегик ислоҳотларни амалга ошириш муаммолари ва ечимлари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами. 2019 йил 20 феврал. -Бухоро: 2019.**

Мазкур тўпланда 2019 йил 20 феврал куни Бухоро иқтисодиёт ва банк коллежи ва Бухоро давлат университети Туризм кафедраси билан ҳамкорликда ўтказилган “Таълим, иқтисодиёт ва туризм соҳаларида стратегик ислоҳотларни амалга ошириш муаммолари ва ечимлари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференциянинг мақолалари акс эттирилган.

Анжуман тўпамидан Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими, умумтаълим мактаб ўқитувчилари, катта илмий ходим, мустақил тадқиқотчи ва изланувчилар, магистр ва бакалавр талабалари, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ўқувчилари фойдаланишлари мумкин.

**Масъул муҳаррирлар:**

**Б.С.Исомов – Бухоро иқтисодиёт ва банк коллежи, и.ф.н., доцент**

**С.С.Хўжаев – Бухоро иқтисодиёт ва банк коллежи директори**

**Д.Ш.Явмутов – Бухоро давлат университети, и.ф.н., доцент**

**Ташкилий қўмита:**

1. Б.Н. Наврўз-зода – БухДУ Туризм кафедраси профессори, и.ф.д.
2. А.Т. Жўраев – БухДУ Туризм факултети декани, и.ф.н., доцент.
3. Ҳ.Р.Ҳамроев – БухДУ Туризм кафедраси, и.ф.н., доцент.
4. С.У.Тожиева – БухДУ Туризм кафедраси мудир, и.ф.н., доцент.
5. М.М.Таирова – БухДУ Иқтисодиёт кафедраси доценти, и.ф.н.
6. М.Ҳ.Қиличов – БухДУ Халқаро алоқалар бўлими бошлиғи
7. О.К.Хуррамов – БухДУ Туризм кафедраси катта ўқитувчиси
8. Э.А.Фарманов – БухДУ Туризм кафедраси ўқитувчиси
9. М.М.Аслонов – Бухоро иқтисодиёт ва банк коллежи директор ўринбосари
10. Қ.Х.Бобомуродов – Бухоро иқтисодиёт ва банк коллежи директор ўринбосари

***Мазкур тўпламга киритилган мақолаларнинг мазмуни, ундаги статистик маълумотлар, саналарнинг тўғрилигига ҳамда танқидий фикр-мулоҳазаларга муаллифларнинг шахсан ўзлари масъулдир.***

билан боғлаб турувчи асосий йўналиш бўлган, ташқи дунёга руслар орқали чиқиш мумкин бўлган. Ҳозирги пайтгача ташқи иқтисодий алоқалар учун зарур бўлган инфраструктуралар ушбу йўналишда энг яхши ривожланган ва иқтисодий алоқалар ҳажми жиҳатидан ҳам энг аҳамиятлиси бўлиб қолмоқда. Яна бир йўналиш Россия давлатининг транспорт артерияларини четлаб (бу жиҳатдан биринчи икки йўналишга алтернатив йўл ҳисобланади ва унинг монополлигига зарба бериб, транспорт харажатларини пасайишига имкон беради) ўтиб Европа Иттифоқи бозорига (шу жумладан, жуда тез ўсаётган турк ва Эрон бозорларига ҳам) энг арзон ва тез чиқиш имконини берадиган йўналишдир. Яна икки йўналиш асрлар давомида Марказий Осиё давлатларининг ташқи иқтисодий алоқаларини олиб боришга катта хизмат қилиб келган “Шоҳрах” (“Буюк ипак йўли”нинг ядровий қисми)нинг асосий йўлларига мос тушади. Хулоса қилиб айтганда, “Шоҳрах” йўлларини тиклаш, Кейинги икки йўналиш бўйича ташқи иқтисодий алоқаларни ривожлантириш Ўзбекистон ҳукуматининг ташқи дунёга чиқиш борасидаги ишларнинг устувор вазифаларидан бири, деб ҳисоблаймиз.

Ташқи иқтисодий алоқалар ҳажмини оширишнинг энг самарали йўлларидан бири – эркин иқтисодий ҳудудларни яратишдан иборат. Шунинг учун “Шоҳрах”га қаратиб божхона ва савдо ҳудудларини Бухоро ёки Қашқадарё ёхуд Сурхандарё вилоятида ташкил этиш мақсадга мувофиқдир. Албатта, эркин иқтисодий ҳудудларни ташкил этишда кўплаб омилларни ҳисобга олишга тўғри келади, аммо биринчи навбатда, геосиёсий омилларни инобатга олиш зарур, яъни кам чиқим билан ва иложи бориша тез ҳамда катта ҳажмда жаҳон бозорларига чиқиш омиллари жой танлашда ҳал қилувчи роль ўйнаши керак. Бу регионда ташкил этилган эркин иқтисодий ҳудудлар эса жаҳон бозорларига жаҳон океани орқали тез ва арзон чиқиш имконини беради. Юқорида таъкидлаганимиздек, Бухоро шаҳри Ўзбекистоннинг “Шоҳрах” томон қаратилган энг қулай дарвозаси бўлишга барча имкониятларга эга.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мамлева Л. А. Становление Великого шёлкового пути в системе трансквилизационного взаимодействия народов Евразии // Vita Antiqua. 1999. № 2. С. 53—61.

2. История древнего мира. Рассвет древних обществ./ под ред. И. М. Дьякова, В. Д. Нероновой, И. С. Свилицкой. М. 1983.

3. Хамроев Х. Р. Зонал сиёсат: методология, хорижий тажриба ва кўллаш йўналишлари. Монография. Тошкент. “Фан” нашриёти. 2008 й. 352 бет.

4. Экономическая история: хрестоматия под редакцией А. Д. Кузьмичева и С. К. Никитиной.

## **“BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI” MAVZUSINI MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O’QITISH IMKONIYATLARI**

*Toxirov J.R., o‘qituvchi,  
Tolibov G‘., talaba, BuxDU*

Bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmi ko‘plab asrlar davomida tarkib topib, shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko‘pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi. Mazkur iqtisodiyotning barqarorligi shu bilan izohlanadiki, uzoq davrli iqtisodiy evolyutsiya davomida uning amal qilishining asosiy klassik qoidalari saqlanib qoldi.

Oldingi bobda aytganimizdek, xususiy mulkchilikning paydo bo‘lishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining ro‘y berishi bozor iqtisodiyotining kelib chiqishi va mavjud bo‘lishing umumiy sharoiti hisoblanadi. Xususiy mulkchilik va mehnat taqsimoti ijtimoiy xo‘jalikning tovar shaklini taqozo qiladi, tovar ishlab chiqarishning mavjud bo‘lishi o‘z-o‘zidan pul muomalasi, ayirboshlash, taqsimlash va iste‘molning bozorga oid xususiyatini ko‘zda tutadi. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishi uchun muhim shartlardan biri, ishlab chiqarishning mustaqilligi, tadbirkorlikning erkinligi, resurslarning erkin almashinuvidan iborat.

Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari tarkibiga tadbirkorlar ham, yollanma ishchilar ham, pirovard iste'molchilar, ssuda kapitali egalari va qimmatli qog'ozlar egalari ham kiradi. Odatda, bozor xo'jaligining barcha asosiy sub'ektlari uchta guruhga bo'linadi: uy xo'jaliklari, korxonalar (tadbirkorlik sektori) va davlat.

Uy xo'jaliklari – iqtisodiyotning iste'mol sohasida faoliyat qiluvchi asosiy tarkibiy birlik. Uy xo'jaliklari doirasida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida yaratilgan tovar va xizmatlar iste'mol qilinadi. Bozor iqtisodiyotida uy xo'jaliklari mulk egasi hamda ishlab chiqarish omillarini yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlari shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun sarflanadi.

Tadbirkorlik sektori – bu daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi iqtisodiyotning birlamchi bo'g'inlaridir. U ish yuritish uchun o'z kapitalini yoki qarz olingan kapitalni ishga solishni taqozo etadi, bu kapitaldan olingan daromad ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun sarflanadi. Tadbirkorlar tovar xo'jaligida tovar va xizmatlarni yetkazib beradi.

Davlat – foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan, har xil byudjet tashkilotlari va muassasalari sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, ba'zi darslik va o'quv qo'llanmalarda bozor iqtisodiyotining yana bir alohida, mustaqil sub'ekti sifatida banklar ajratib ko'rsatiladi.

Bank – iqtisodiyotning me'yorda amal qilishi uchun zarur bo'lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi.

Jamiyatimizda amalga oshayotgan yirik islohotlar xalq xo'jaligi hamda boshqa sohalarning turli tarmoqlari uchun g'oyaviy-siyosiy jihatdan yetuk, nazariy, amaliy va kasbiy tayyorgarligi yuqori kadrlar etkazib berishni talab etmoqda. Fan-texnika va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi shaxsning faolligiga bog'liq bo'lib, o'z navbatida bevosita ta'lim va tarbiya, kadrlar tayyorlash jarayonida o'ziga xos talablar qo'yadi.

Bu borada Prezidentimizning “Eng avvalo, odamlarimiz islohotlar samarasini kelajakda emas, balki bugun o'z hayotida his etishlari zarur. Aynan shu maqsadda biz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yar ekanmiz, salohiyat va imkoniyatlarimizni xolis baholash bilan birga, xato va kamchiliklarimizni ham atroflicha tanqidiy tahlil qildik. Chunki o'zimiz shu ishni qilmasak, hech kim bu xatolarni chetdan kelib bizga aytmaydi. Biz o'z kelajagimizni o'zimiz quramiz. Bu yo'lda xato qilishga haqqimiz yo'q. Shuning uchun har tomonlama chuqur o'ylab, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini qabul qildik. Mazkur hujjat mohiyatiga ko'ra, jamiyat hayotining barcha sohaslaridagi tizimli islohotlarning “yo'l xaritasi” ga aylandi” deb takidlaganlarida ham katta ma'no bor.<sup>12</sup>

Buning yorqin misolini ta'limga berilayotgan e'tiborda ko'rishimiz mumkin OTT (Oliy ta'lim tizimi)ni 2017 - 2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lar 1,7 trillion so'mdan ziyod bo'lib, ulardan 1,2 trillion so'mi o'quv-laboratoriya binolari, sport zallari va talabalar turarjoylarini rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlashga, 500 milliard so'mdan ortiq mablag' esa o'quv-laboratoriya uskunalari, mebel va inventar bilan ta'minlash, umumiy tartibda foydalanishga mo'ljallangan, barcha ta'lim muassasalariga xizmat ko'rsatadigan laboratoriya komplekslarini tashkil etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga sarflanadi.<sup>13</sup>

Ta'lim sohasida modulli o'qitish-o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

---

<sup>12</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 7 dekabr 2017 yil. <http://xs.uz/index.php/homepage/rasmij/item/12463-7894>.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-2909-son O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda.

Ushbu o`qitish texnologiyasi XX asrning 60 yillari oxirlarida AQSh va G`arbiy Evropada an`anaviy o`qitish texnologiyasiga alternativ tarzda yuzaga kelgan. Rossiyada ushbu texnologiyani P.Yutsvicheneva, T.I.Shamovlar rivojlantirgan.

Bu texnologiyada o`quvchi modul bilan ishlash jarayonida mustaqil (yoki o`qituvchining ma`lum yordami bilan) ravishda aniq o`quv maqsadlariga erishadi.

Modul - o`quv mazmuni va uni egallash texnologiyasini o`z ichiga olgan maqsadli funktsional tarkib hisoblanadi.

**Modul tarkibi:**

- maqsadli harakat rejasi;
- axborotlar banki;
- didaktik maqsadga erishish bo`yicha uslubiy tavsiyalar, ko`rsatmalar.

**Tadbiq etish shartlari:**

- modulli dastur + majmuali didaktik maqsad + unga erishishni ta`minlovchi modullar majmui.

**Modul tiplari:**

- bilish jarayoni – fan asoslarini o`rganish;
- jarayonli- faoliyat usullarini shakllantirish va rivojlantirish;
- aralash – birinchi ikki guruh mazmunini birlashmasi.

**O`quv jarayonini tashkil etish mantiqi:**

- har bir modul mazmuni o`rganilgach, o`quvchilar bilimi va o`quvini dastlabki nazorati (tayyorgarlik darajasi);

- bilimlarga tegishli o`zgartirishlar, tuzatishlar kiritish (talab etilgan taqdirda);
- joriy va oraliq nazorat (o`z-o`zini nazorat qilish, o`zaro nazorat, tekshirish);
- yakuniy nazorat (modul bilan ishlash yakunida).

Moduldan o`qitishning har qanday tashkiliy tizimida foydalanish mumkin. An`anaviy o`qitish tizimi bilan modul texnologiyasini birgalikda qo`llash samarali hisoblanadi.

Modulli o`qitish texnologiyasi ta`lim oluvchining o`qish jarayoniga muammoli yondashuvi va ijodiy munosabati bilan nazariya va amaliyotni o`rganish bo`yicha kompleks faoliyatini mujassamlantiradi. Undan foydalanish ta`lim oluvchilarda mustahkam, anglangan bilim va ko`nikmalarni shakllantirishga, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

An'anaviy ta'limda o`quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo`naltirilgan bo`lsa, modulli o`qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo`naltirilgan bo`ladi.

Modulli o`qitish texnologiyasining an'anaviy o`qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik.

**1- jadval**

<b>An'anaviy o`qitish texnologiyasiga asoslangan</b>	<b>Modulli o`qitish texnologiyasiga asoslangan</b>
<ul style="list-style-type: none"><li>• Bir tomonga yo`naltirilgan axborot.</li><li>• Bir tomonlama muloqot (darslik&gt;o`qituvchi&gt;o`quvchi)</li><li>• Axborot olish</li><li>• Xotirada saqlash</li><li>• Ma'nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash.</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>▪ Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag`batlantirish.</li><li>▪ Ikki tomonlama muloqot</li><li>▪ Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish</li><li>▪ Bilim va ko`nikmalarni namoyish etish</li><li>▪ Mazmuni tushunish va hayotga bog`lash.</li></ul>

**Manba:** Mobilising the Brainpower of Europe: Enabling Universities to Make Their Full Contribution to the Lisbon Strategy.” Communication from the Commission, COM (2005) 152 final, 12. Brussels: European Union, 2005.

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta'lim an'anaviy ta'limdan o'qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi.

**Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin:**

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o'quv o'yinlar;
- loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazo.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

- fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligini ta'minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o'rnatilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
- talabalar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;
- talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individallashtirishni tavsiya etishi mumkin);
- axborotni «siqib» berish natijasida o'qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlari individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.

Buning natijasida talaba yetarli bilimlarga ko'nikmaga ega bo'ladi.

Modulli ta'lim asosida o'qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

Demak, modulli ta'lim asosida o'qitishda innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yoring yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga yo'naltirilgan faoliyat sanaladi. U shaxsning, xususan, pedagogning innovatsion jarayonni tashkil etishga tashkiliy –texnologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorligi hisobiga tashkil etiladi. Pedagogik innovatsiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berish orqali ta'lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi hamda u ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu bois har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa ta'lim jarayoni ham sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining rivojini ta'minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. Rahimov O.D. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: loyihalar uslubi – ta'lim sifatini oshiruvchi texnologiya sifatida. Uslubiy qo'llanma. - Qarshi-2013y, 84 bet.
2. Higher Education Bureau, Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. <http://www.mext.go.jp>. 2008. p. 4-6.
3. Mobilising the Brainpower of Europe: Enabling Universities to Make Their Full Contribution to the Lisbon Strategy." Communication from the Commission, COM (2005) 152 final, 12. Brussels: European Union, 2005. [http://ec.europa.eu/education/policies/2010/doc/comuniv2005\\_en.pdf](http://ec.europa.eu/education/policies/2010/doc/comuniv2005_en.pdf).
4. Ишмухамедов Р. “Иноватсион технологиялар ёрдамида та’лим самарадорлигини ошириш йўллари”. Т.: ТДПУ, 2005 йил.
5. Экономическая теория (политэкономия): Учебник/ Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, акад. Г.П.Журавлевой. – 4-е изд. - М.: ИНФРА-М, 2004, с.78-79.; Тожибоева Д. Иқтисодий назарияси: Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма./Акад. М.Шарифхўжаевнинг илмий тахрири остида. – Т.: «Ўқитувчи», 2002, 74-б.
6. Khurramov O. K. Concept of teaching, actions and technology //Современные тенденции развития аграрного комплекса. – 2016. – С. 1728-1732.

7. Khudoykulov K., Khamidov O., Aktamov A. Testing Capital Asset Pricing Model (CAPM) on the Emerging Markets of the Europe //Spanish Journal of Rural Development. – 2015. – Т. 6. – №. 3. – С. 1-8.
8. Dilmonov K. B. Concept and education culture personality //Современные тенденции развития аграрного комплекса. – 2016. – С. 1718-1721.
9. Khamidov O. X., Qahhorov O. S., Adizov B. I. Automation of educational, scientific and administrative processes of higher education institutions: the development of innovative management under the influence of web technologies //Economics and education. – 2019. – Т. 6. – С. 174.
10. Каххоров О. С., Адизов Б. И. Олий таълим муассасалари битирувчилари ракобатбардошлиги: тушунчалар, фикрлар, карашлар //Жамият ва Бошқарув. – 2019. – Т. 1. – №. 83. – С. 115-117.
11. Tokhirov J. R. Concept of teaching technologies and techniques //Современные тенденции развития аграрного комплекса. – 2016. – С. 1743-1747.

## **MEHMONXONA BIZNESIDA KADRLAR BOSHQARUVINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY XUSUSIYATLARI**

*Maxmudova N. O'., BuxDU, katta o'qituvchi*

Mehmonxonada xodimlarni tanlashning asosiy printsipti "Kerak bo'lgan xodimni kerakli vaqtda, kerakli joyda shakllantirish"dir. Ushbu tamoyilni amalga oshirish tizimli yondashuvni talab qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mehmonxonaning rahbariyati xodimlarni ishni bajarish uchun zarur bo'lgan texnik ko'nikmalarga ega bo'lishlariga yordam berishlari kerak, ammo ularni mijozlarga va hamkasblariga nisbatan mehr va do'stona bo'lishni o'rgatish juda qiyin. Shuning uchun xodim tanlashda to'g'ri tanlovni amalga oshirish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirish kerak.

Mehmonxonaning har bir bo'limining menejeri o'zing ish joylariga xodimlarni to'ldirish zarurligini aniqlaydi va tegishli xodimlarni mustaqil tanlaydi, yoki Xodimlar bo'limiga buyurtma beradi.

Mehmonxonada xodimlarni jalb qilish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

*Hamkorlar yordami bilan tanlov usuli.* Hozirgi kunda bu usul Rossiyada juda mashhur bo'lib, uning mohiyati tashkilot hamkorlariga murojaat qilish, yordam so'rash va nomzodlarni o'z qarindoshlari va tanishlari orasida norasmiy ravishda qidirishga qaratilgan.

O'zini namoyon etgan nomzodlar. Mehmonxonada doimiy ravishda xatlar va fakslarni rezyumedan, shuningdek, ish qidirish bilan bant bo'lgan kishilarning telefon qo'ng'iroqlarini qabul qiladi. Mehmonxonada bu odamlarning ma'lumotlar bazasi yo'q, lekin ular o'z bilimlari va ko'nikmalarini ko'rsata olishsa ular ish o'rinlariga ega bo'lishlari mumkin.

*Matbuotda reklama orqali xodimlarni jalb qilish.* Bu usul, odatda, ommaviy kasblar uchun nomzodlarni tanlab olishga yordam beradi, masalan, restoranlarda ofitsiantlar zaruriyati, Mehmonxonada mehmonxonasida esa bu usul ko'proq marketing va savdo bo'limida amalga oshiriladi.

*Ta'lim muassasalarida uchrashuvlar va bandlikka ko'maklashish kunlarini o'tkazish.* Ushbu uslublar asosan yosh mutaxassislarni mehmonxonada sohasiga jalb qilish uchun ishlatiladi.

*Internet.* Global tarmoq so'nggi yillarda nomzodlarni tanlashning yana bir muhim vositasiga aylandi. Uning asosiy afzalliklari tezligi, qamrovi kengligi va nomzodlar bilan real vaqtda muloqot qilish qobiliyatidir.

Birlamchi tanlov tanlangan nomzodlarning ro'yxatini tahlil qilish va ular mehmonxonada talablariga muvofiqligi bilan boshlanadi. Birlamchi tanlovning asosiy maqsadi bo'sh lavozimni to'ldirish uchun zarur bo'lgan eng kam xususiyatlarga ega bo'lmagan nomzodlarni ko'zdan kechirishdir. Tabiiyki, mehmonxonaning turli bo'limlari uchun minimal to'siq farq qiladi. Misol

**МУНДАРИЖА / CONTENT / СОДЕРЖАНИЕ**

<b>FEATURES OF INCREASING INTERNATIONAL TOURISTS IN UZBEKISTAN</b> <i>Jurayev A.T. Dean of Tourism faculty, Bukhara State University</i>	<b>3</b>
<b>ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЮЖНО КОРЕЙСКОЙ ЭКОНОМИКИ</b> <i>Явмутов Д.Ш., БухГУ, к.э.н., доцент</i>	<b>5</b>
<b>L'IMPACT INDIRECT DU TOURISME : UNE ANALYSE ECONOMIQUE</b> <i>TED AFL, par le Professeur François VELLAS Université de Toulouse</i> <i>3ème réunion des Ministres du Tourisme du T20 FRANCE, Paris,</i>	<b>7</b>
<b>ЎЗБЕКИСТОНДА ЕРНИ ХУСУСИЙ МУЛККА АЙЛАНТИРИШ</b> <b>МУАММОЛАРИ</b> <i>Ҳамроев Ҳ.Р., БухДУ, доцент</i>	<b>8</b>
<b>LA NAISSANCE DE L'ENTREPRISE EN OUZBÉKISTAN ET EN RUSSIE</b> <i>Ivan Samson, Université de Versailles Saint-Quentin, Versailles (UVSQ)</i>	<b>10</b>
<b>ТУРИЗМНИНГ БАРҚАРОР ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ МОДЕЛИ</b> <i>Навруз-Зода Б.Н., БухДУ, профессор, и.ф.д.</i>	<b>11</b>
<b>CRITÈRES THÉORIQUES ET PRATIQUES DE L'INVESTISSEMENT ET DE LA CROISSANCE</b> <i>Alban Richard, Université de Versailles Saint-Quentin, Versailles (UVSQ)</i>	<b>13</b>
<b>ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ ТАДЖИКИСТАН КАК УСЛОВИЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ</b> <i>Комилов С.Д. Российско-Таджикский славянский университет, Д.Э.Н.</i> <i>Файзуллаев М.К. Докторант Московского государственного университета</i>	<b>16</b>
<b>ИННОВАЦИОН МАРКЕТИНГ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИ</b> <b>КОРХОНАЛАР</b> <b>ФАОЛИЯТИГА ТАТБИК ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ</b> <i>Таuroва М.М. БухДУ, Иқтисодиёт кафедраси доценти</i> <i>Қодирова Н., талаба, БухДУ</i>	<b>19</b>
<b>ANALYSE DE LA MISE EN ŒUVRE DES RÉFORMES ÉCONOMIQUES EN OUZBÉKISTAN ET EN RUSSIE</b> <i>Isomov B.S., Collège de boukhara d'économie bancaire</i>	<b>20</b>
<b>МИНТАҚАВИЙ МЕҲМОНХОНА ИНДУСТРИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА</b> <b>КИЧИК БИЗНЕСНИНГ О'РНИ</b> <i>Tadjiyeva S.U., i.f.n., dotsent</i>	<b>26</b>
<b>КОМПЬУТЕР ТАРМОҚЛАРИДА АХБОРОТЛАРНИ НИМОЙАЛАШ</b> <i>Хо'jayev S.S., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji direktori</i>	<b>28</b>
<b>THE EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN</b> <i>Lee Pyong Chol, University of Young Lee, Professor</i> <i>Narziyeva D., Bukhara state University Department of economics</i>	<b>31</b>
<b>ТА'ЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЭТАКЧИ</b> <b>МЕХАНИЗМИ СИФАТИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЛАБА</b> <i>Otayev Sh., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>32</b>
<b>ХИЗМАТЛАР СОҲАСИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИГИНИНГ</b> <b>АҲАМИЯТИ</b> <i>Тохиров Ж.Р., БухДУ, Туризм кафедраси ўқитувчиси</i>	<b>33</b>
<b>E-MAIL MARKETING МОҲИЯТИ ВА АҲАМИЯТИ</b> <i>Saidova F.K., BuxDU, o`qituvchi</i> <i>Yodgorov O.Yo., BuxDU, 4-kurs talaba</i>	<b>36</b>



<b>TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI O'QITISH USULLARINI JORIY ETISHNING MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Qutliyeva M.G., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>39</b>
<b>PEDAGOGIK MAHORAT AMALIY VA NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Aslonov M.M., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji direktori</i>	<b>41</b>
<b>KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKDA MARKETING TADBIRLARINING ANAMIYATI</b> <i>Sulaymonova G.X., BuxDU, o'qituvchi</i> <i>Andayev J.J., BuxDU, 4-kurs talaba</i>	<b>43</b>
<b>BANK MARKETINGI MOHIYATI VA ZARURLIGI</b> <i>Atamuradova N., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>46</b>
<b>РОЛЬ ТУРИЗМА В ЭКОНОМИКЕ СТРАНЫ</b> <i>Умеджанова М., Бухарский колледж экономики и банка</i>	<b>48</b>
<b>АЛОҚА ВА АХБОРОТЛАШТИРИШ ХИЗМАТЛАРИ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ МУАММОЛАРИ</b> <i>Одилова F., Бухоро иқтисодиёт ва банк коллежи</i>	<b>49</b>
<b>TA'LIM TIZIMIDA ISLOHOTLAR STRATEGIYASINING AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI</b> <i>Norova X., Toshkent Texnika Universiteti</i>	<b>51</b>
<b>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ И ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ В ТУРИЗМЕ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОГО РЕГИОНА</b> <i>Азимов О.Х. - преподаватель, БухГУ</i>	<b>52</b>
<b>БОЛА ТАРБИЯСИДА БОҒЧА ВА ОИЛА ҲАМКОРЛИГИНИНГ МОҲИЯТИ</b> <i>Алқарова Ф., Т.Н. Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти</i>	<b>54</b>
<b>РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА</b> <i>Ходжаева Р.Х., Бухарский академический лицей</i>	<b>55</b>
<b>ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ МОҲИЯТИ ВА АСОСИЙ БЕЛГИЛАРИ</b> <i>Болтаев Ш.Ш., БухДУ, Иқтисод кафедраси, катта ўқитувчиси</i>	<b>57</b>
<b>BANKLARDA MARKETINGNI TASHKIL ETISH VA XIZMAT TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Axmedova Yu. Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>58</b>
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИК СОҲАСИДА МЕНЕЖМЕНТНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ</b> <i>Истамов А.А., БухДУ, 4-курс талаба</i>	<b>59</b>
<b>РАҚОБАТНИНГ МОҲИЯТИ, ШАКЛЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ</b> <i>Дилмонов Қ.Б., БухДУ, катта ўқитувчи</i> <i>Шуқуриллоев М.Ғ., БухДУ, 4-курс талаба</i>	<b>62</b>
<b>MENEJMENTNING MUMTOZ STRATEGIC YO'NALISHLARI VA ULARDAN SAMARALIY FOYDALANISH</b> <i>Zoxidova U., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>66</b>
<b>“TALAB, TAKLIF VA BOZOR MUVOZANATI” MAVZUSINI O'QITISHDA GRAFIKLI ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI</b> <i>Toxirov J.R., o'qituvchi,</i> <i>Abdulahadov Jahongir talaba, BuxDU</i>	<b>67</b>
<b>INNOVATION MENEJMENTI ASOSLARINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY ANAMIYATI</b> <i>Nazarova M., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>70</b>

<b>ТУРИЗМ – ЛОКОМОТИВ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b> <i>Дедажанов Б., Каримжонов Р., Ташпулатов М.</i> <i>Наманганский инженерно-технологический институт</i>	<b>71</b>
<b>TASHKILOTLARDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH</b> <i>Zohidova U.F., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>73</b>
<b>ИҚТИСОДИЙ МУВОЗАНАТЛИК, УНИ ТАЪМИНЛАШ ШАРТ ШАРОИТЛАРИ ВА АНИҚЛАШ УСУЛЛАРИ</b> <i>Қодиров А.А., БухДУ, иқтисод кафедраси катта ўқитувчиси</i>	<b>74</b>
<b>ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ТАСНИФЛАНИШИ ВА ТУРЛАРИ</b> <i>Ботиров Ш.Ш., БухДУ, 4-курс талаба</i> <i>Илмий раҳбар: Дилмонов Қ.Б.</i>	<b>76</b>
<b>ТУРИСТСКАЯ РЕНТА КАК ФАКТОР САМОРАЗВИТИЯ ОТРАСЛИ</b> <i>Козырев В.М., МТИ - Россия</i>	<b>79</b>
<b>ОСНОВЫ ПОСТРОЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА НА ПРОИЗВОДСТВЕ</b> <i>Атамуродова Н.Т., Бухарский колледж экономики и банка</i>	<b>83</b>
<b>О‘ЗБЕКISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN STRATEGIK IQTISODIY ISLOHOTLARNING ENG MUHIM USTUVOR YO‘NALISHLARI</b> <i>Karimova X., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>85</b>
<b>ROLE OF MARKETING RESEARCHES IN STUDYING THE POSSIBILITIES OF MOUNTAIN AND FOOTHILL TERRITORIES</b> <i>Madiyarov G., Ph.D., docent, Madiyarov O.G., student, Mamajonov J., student, Namangan Institute of Engineering and Technology</i>	<b>86</b>
<b>INTERNET MARKETING-ZAMONAVIY MARKETINGNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA</b> <i>Xurramov O.K., BuxDU, katta o‘qituvchi</i> <i>Qosimova H.J., BuxDU, 4-kurs talaba</i>	<b>87</b>
<b>ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ТУРЛАРИ</b> <i>Шарифова Ш.Ш., БухДУ, ўқитувчи</i> <i>Норқулов Ш.Н., БухДУ, 4-курс талаба</i>	<b>92</b>
<b>HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b> <i>Toirova M.M., BuxDU, Iqtisodiyot kafedra katta o‘qituvchisi</i>	<b>94</b>
<b>ВАЖНЕЙШИЕ УСЛОВИЯ УСКОРЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ И УЛУЧШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ УЗБЕКИСТАНА</b> <i>Худойбердиева О.К., Бухарский колледж экономики и банка</i>	<b>97</b>
<b>“RAQOBATNING MONIYATI, SHAKLLARI VA USULLARI” MAVZUSINI PEDAGOGIK LOYIHALASHTIRISH VA REJALASHTIRISH YO‘LLARI</b> <i>Toxirov J.R., o‘qituvchi, Negmatov M., talaba, BuxDU</i>	<b>100</b>
<b>БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШДА ДАВЛАТНИНГ ИҚТИСОДИЙ РОЛИ</b> <i>Ашурова М.Х., БухДУ, Туризм кафедраси, катта ўқитувчи</i>	<b>103</b>
<b>ICHKI TURIZMNING RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING JAMIYAT HAYOTIGA TA’SIRI</b> <i>Xudoybaxshev H.H., BuxDU, 4-kurs talaba</i> <i>Ilmiy rahbar: Dilmonov Q.B.</i>	<b>105</b>

<b>AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASHNING MOHIYATI</b> <i>Qo'chqorov N., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>107</b>
<b>REKLAMA KOMMUNIKATSIYASINING AHAMIYATI VA ASOSIY ELEMENTLARI</b> <i>Axmedov A.A., BuxDU, 4-kurs talaba</i> <i>Ilmiy rahbar: Dilmonov Q.B.</i>	<b>108</b>
<b>ЗНАЧЕНИЕ ОБСЛУЖИВАНИЯ ЛИЗИНГА В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ ЭКОНОМИКИ</b> <i>Болтаева Ш.Б., стар. преподаватель БухГУ</i>	<b>110</b>
<b>KREATIV (IJODIY) IQTISODIYOTDA RIVOJLANISH MUAMMOLARI</b> <i>Jiyanov L., Buxoro muhandislik texnologiya instituti magistri</i> <i>Sharipov M., Buxoro viloyat statistika boshqarmasi bosh mutaxassisi</i>	<b>112</b>
<b>AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH VA ISHSIZLIK MUAMMOLARI</b> <i>Shojonova F., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>114</b>
<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUOLLI KUCHLARI OLDIDAGI VAZIFALAR</b> <i>Axmatov H., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>116</b>
<b>РОЛЬ ИННОВАЦИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ</b> <i>Болтаева М.Ш., старший преподаватель БухГУ</i>	<b>117</b>
<b>ТА'LIM VA TADBIRKORLIK TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI</b> <i>Davlatova N., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>119</b>
<b>REKLAMA FAOLIYATI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI</b> <i>Mavlonova A.I., BuxDU, 4-kurs talaba</i> <i>Ilmiy rahbar: Xurramov O.K.</i>	<b>120</b>
<b>O'ZBEKISTONDA BANDLIK MUAMMOSI</b> <i>Alimova Sh., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>124</b>
<b>ЛИЗИНГ ИМКОНИАТЛАРИНИ КЕНГАЙТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МОХИЯТИ</b> <i>Имомова С., Бухоро иқтисодиёт ва банк коллежи</i>	<b>125</b>
<b>O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH MANBAALARINI KO'RAYTIRISH YO'LLARI</b> <i>Negmatova D., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>126</b>
<b>ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАХСУЛОТЛАРИ МАРКЕТИНГИ ХУСУСИЯТЛАРИ</b> <i>Таuroва М.М., БухДУ, Иқтисодиёт кафедраси доценти</i> <i>Муротова Н.Ў., БухДУ, талаба</i>	<b>128</b>
<b>HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYA FANINING DOLZARB VAZIFALARI</b> <i>Gadoyeva N., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>130</b>
<b>ZAMONAVIY O'QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISH VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR</b> <i>Shukurova X., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>131</b>
<b>BUXGALTERLIK HISOBOTINI O'RGANISH MUAMMOLARI</b> <i>Odilova F., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>132</b>
<b>INNOVATSIYA VA INNOVATSION FAOLIYAT</b> <i>Djurayeva D.D., BuxDU, Turizm kafedrasida doktoranti</i>	<b>134</b>
<b>TUROPATORLAR TOMONIDAN XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI</b> <i>Sharifova Sh.Sh., BuxDU, Turizm kafedrasida o'qituvchisi</i>	<b>135</b>

<b>ПРОБЛЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИКИ</b>	
<i>Одилова Ф., Бухарский колледж экономики и банка</i>	<b>139</b>
<b>O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MUMMOLARI</b>	
<i>Shodiyeva Sh., Buxoro turizm kolleji</i>	<b>141</b>
<b>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA‘LIM TIZIMI ISLOHOTLARI</b>	
<i>Maxmudova N., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>142</b>
<b>BOZOR IQTISODIYOTI SHARITIDA AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASH VA ISH O‘RINLARI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI</b>	
<i>Halimova D., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>143</b>
<b>O‘ZBEKISTON QUROLLI KUCHLARINING AMALIY XUSUSIYATLARI</b>	
<i>Axmatov H., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>144</b>
<b>TA‘LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI</b>	
<i>Nazarova M., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>146</b>
<b>BOSHQARUV FAOLIYATIGA OID QARORLARNI QABUL QILISH MUAMMOLARI</b>	
<i>Atamuradova N.T., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>148</b>
<b>ELEKTRON BIZNESDA MARKETING TADQIQOTLARI AHAMIYATI</b>	
<i>Elmurodova S.R., BuxDU, 4-kurs talaba</i> <i>Ilmiy rahbar: Xurramov O.K.</i>	<b>149</b>
<b>СОЛИҚ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ</b>	
<i>Худойибердиева О.К., Бухоро иқтисодиёт ва банк коллежи</i>	<b>153</b>
<b>ISHSIZLIKNING PAYDO BO‘LISH SABABLARI VA UNI OLDINI OLISH YO‘LLARI</b>	
<i>Qo‘chqorov N., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>155</b>
<b>TARIXIY MAKTABLAR VA ULARNING MENEJMENTGA KO‘RSATADIGAN TA‘SIRI</b>	
<i>Zoxidova U., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>156</b>
<b>BUXORO SHAHRIDA XIZMAT KO‘RSATUVCHI KORXONALARNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.</b>	
<i>Toxirov J.R., o‘qituvchi,</i> <i>Uzoqov R., talaba, BuxDU</i>	<b>157</b>
<b>TURIZMDA MARKETING STRATEGIYALARINING ASOSIY KO‘RINISHLARI</b>	
<i>Aslonov M.V., BuxDU, 4-kurs talaba</i> <i>Ilmiy rahbar: Dilmonov Q.B.</i>	<b>160</b>
<b>THE IMPORTANCE OF MARKETING IN ENSURING THE STABILITY OF BANKS</b>	
<i>Abdurahmanova M., Namangan Engineering and Technology Institute</i>	<b>161</b>
<b>AHOLINI BANDLIGINI TA‘MINLASHDA MEHNAT BIRJASINING O‘RNI</b>	
<i>Shojonova F., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>163</b>
<b>ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ МОҲИЯТИ ВА ЖАЛБ ҚИЛИШ САБАБЛАРИ</b>	
<i>Жўраев М.О., БухДУ, 4-курс талаба</i> <i>Ильмий раҳбар: Дилмонов Қ.Б.</i>	<b>164</b>
<b>МЕҲМОНХОНАЛАР ТОМОНИДАН БИЗНЕСНИНГ САМАРАЛИ ҲИСОБ ЮРИТИШ СИЁСАТИ ТАНЛАНИШИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЖИҲАТЛАРИ</b>	
<i>Ашурова М.Х., БухДУ, Туризм кафедраси, катта ўқитувчи</i>	<b>167</b>
<b>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFI TUZILMALARI VA ULARNING ASOSIY VAZIFALARI</b>	
<i>Axmatov H., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>169</b>

<b>MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING DOLZARBLIGI</b> <i>Davlatova N., Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji</i>	<b>170</b>
<b>IJTIMOIIY MEDIA MARKETINGNING MAZMUN MOHIYATI</b> <i>Saidova F.K., BuxDU, o`qituvchi</i> <i>Fazliddinov Sh.Sh., BuxDU, 4-kurs talaba</i>	<b>171</b>
<b>ESSENCE AND FEATURES OF INNOVATIVE ACTIVITY</b> <i>Mansurov D.Y., student of BSU</i>	<b>174</b>
<b>МОЛИЯ БОЗОРИ МУАММО ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ</b> <i>Имомова С., Бухоро иқтисодиёт ва банк коллежи</i>	<b>177</b>
<b>IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASHDA INSON POTENSIALI VA INNOVATSIYALARNING O'RNI</b> <i>Djurayeva D.D., BuxDU, Turizm kafedrasida doktoranti</i> <i>Novakovskaya O.A., Sharq Sibir texnologiya universiteti, i.f.d., professor</i>	<b>179</b>
<b>KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKDA MOBIL MARKETING IMKONIYATLARI VA FOYDALANISH AFZALLIGI</b> <i>Xurramov O.K., BuxDU, katta o`qituvchi</i> <i>Sharipov P.Sh., BuxDU, 4-kurs talaba</i>	<b>181</b>
<b>БИРЖАЛАР РИВОЖИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЮКСАЛИШ МУАММОЛАРИ</b> <i>Негматова Д., Бухоро иқтисодиёт ва банк коллежи</i>	<b>183</b>
<b>СОЛИҚ ТИЗИМИНИ СОДДАЛАШТИРИШ ҲАМДА СОЛИҚ ЮКИНИ ЯНАДА КАМАЙТИРИШ – МАМЛАКАТИМИЗДА ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ ЧУҚУРЛАШТИРИШНИНГ ЭНГ МУҲИМ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИДАН БИРИ СИФАТИДА</b> <i>Қодиров А.А., БухДУ, иқтисод кафедраси катта ўқитувчиси</i>	<b>184</b>
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИК СОҲАСИДА КАДРЛАРНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИНГ АҲАМИЯТИ</b> <i>Жамолов Ш.Ш., БухДУ, 4-курс талаба</i>	<b>186</b>
<b>ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРКИБИЙ ЎЗГАРИШЛАРНИ ИЗЧИЛ АМАЛГА ОШИРИШДА ҚУЛАЙ ИНВЕСТИЦИЯ МУҲИТИНИНГ ЯРАТИЛИШИ</b> <i>Болтаев Ш.Ш., БухДУ, Иқтисод кафедраси, катта ўқитувчиси</i>	<b>187</b>
<b>INTERNET MARKETING TADQIQOTINING AFZAL JIHATLARI</b> <i>Elmurodova S.R., BuxDU, 4-kurs talaba</i> <i>Ilmiy rahbar: Xurramov O.K.</i>	<b>190</b>
<b>O'ZBEKISTONDA TURIZMNING TASHKIL QILISH DOLZARBLIGI</b> <i>Shodiyeva SH. Buxoro turizm kolleji</i>	<b>192</b>
<b>O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA SOHANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.</b> <i>Qayimova Z.A., BuxDU Turizm fakulteti katta o`qituvchisi</i> <i>Cho`lliyeva M.S., BuxDU 4-kurs talabasi</i>	<b>193</b>
<b>“ШОҲРАҲ”ДАН УНУМЛИ ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ</b> <i>Ҳамроев Ҳ.Р., доцент, иқтисод фанлар номзоди, БухДУ</i>	<b>196</b>
<b>“BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI” MAVZUSINI MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH IMKONIYATLARI</b> <i>Toxirov J.R., o`qituvchi,</i> <i>Tolibov G', talaba, BuxDU</i>	<b>198</b>
<b>МЕHМОНХОНА BИZNESИДА КАДРЛАР БОШҚАРУВИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ</b> <i>Махмудова Н. О', БухДУ, катта о`қитувчи</i>	<b>202</b>
<b>ИНВЕСТИЦИОННОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ</b> <i>Сайфуллаев О.О., Бухарский колледж экономики и банка</i>	<b>205</b>